



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI




2023- YIL  
YANVAR-IYUL

*Dastlabki ma'lumotlar*

# Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1)</sup>

(yanvar-iyul)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-iyul** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 131,5** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**115,6 %**) o'sish sur'ati **109,4 %** ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2021-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

# Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

## (1- avgust holatiga ko'ra)

**Xizmatlar sektori** murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxonalar va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zlari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



- 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan, birlikda
- Yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan, birlikda

**2023- yil 1- avgust** holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **22 299** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **15 080** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiy sonining **67,6** foizini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** **2021- yil 1- avgust** holatiga ko'ra xizmatlar sohasidagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,2** foizni yoki **14 164** birlikni tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-iyul** oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 576** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiy sonining **62,1** foizi (**2 537** birlik) darajasida qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** **2021- yil yanvar-iyul** oylarida ularning soni **1 539** birlikni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>6 131,5</b>	<b>109,4</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	2 363,6	113,1	38,5
Zarafshon sh.	783,3	107,9	12,8
G'ozg'on sh.	19,7	109,1	0,3
Karmana t.	891,7	106,0	14,5
Konimex t.	139,8	108,2	2,3
Qiziltepa t.	581,6	109,3	9,5
Navbahor t.	355,1	106,2	5,8
Nurota t.	251,7	106,7	4,1
Tomdi t.	72,6	105,5	1,2
Uchquduq t.	199,2	107,0	3,3
Xatirchi t.	473,2	106,8	7,7

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)



2023- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 782,2** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil etdi



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-iyul)


Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>5 782,2</b>	<b>107,2</b>
Navoiy sh.	15 035,4	109,3
Zarafshon sh.	9 013,7	106,5
G'ozg'on sh.	2 164,8	107,9
Karmana t.	6 532,9	103,4
Konimex t.	3 738,2	106,8
Qiziltepa t.	3 639,5	107,5
Navbahor t.	2 974,1	104,3
Nurota t.	2 847,0	104,9
Tomdi t.	4 596,4	104,2
Uchquduq t.	5 067,7	105,1
Xatirchi t.	2 247,0	104,8

## Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (19 996 birlik) **64,3** foizi yoki **12 848** birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 510** birlikni yoki ularning umumiy sonining (**2 471** birlik) **61,1** foizini tashkil etdi.




2021- y.

2022- y.

2023- y.

● 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan, birlikda

● Yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan, birlikda



**2023-yilning yanvar-iyul** oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **3 493,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **57,0** foizni, shu jumladan, **17,0** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-iyul oylarida bu ko'rsatkich **2 407,6** mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,0** foizni tashkil etgan.

# Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi, <i>% da</i>	Hududda koʻrsatilgan jami xizmatlarning hajmidagi ulushi, <i>% da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 493,9</b>	<b>100,0</b>	<b>57,0</b>
Navoiy sh.	869,2	24,9	36,8
Zarafshon sh.	376,6	10,8	48,1
Gʻozgʻon sh.	10,8	0,3	55,0
Karmana t.	572,9	16,4	64,2
Konimex t.	118,5	3,4	84,7
Qiziltepa t.	450,1	12,9	77,4
Navbahor t.	267,5	7,7	75,3
Nurota t.	213,8	6,1	85,0
Tomdi t.	64,6	1,8	89,0
Uchquduq t.	162,9	4,6	81,8
Xatirchi t.	387,0	11,1	81,8

**2023- yilning yanvar-iyul** oylarida Navoiy shahrida kichik tadbirkorlik hajmi **869,2** mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi. Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **24,9** % ga yetdi. Navoiy shahri boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (**2 363,6** mlrd soʻm) ulushi **36,8** % ni tashkil etdi. Bunga mazkur hududda roʻyxatdan oʻtgan yirik korxonalarining koʻpligi sabab boʻlmoqda.

Tomdi tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi **64,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi (**72,6** mlrd. soʻm) ushbu hududning ulushi **89,0** % ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)


	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, % <i>da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>6 131,5</b>	<b>109,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	247,4	123,9	4,0
Moliyaviy xizmatlar	1406,6	124,7	22,9
Transport xizmatlari	952,3	99,0	15,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	842,4	102,6	13,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	405,1	105,4	6,6
Savdo xizmatlari	1865,1	104,8	30,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	99,5	101,5	1,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	206,7	122,4	3,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,0	99,4	1,4
Ijara xizmatlari	77,0	97,5	1,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	96,1	106,1	1,6
Shaxsiy xizmatlar	171,7	103,3	2,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	304,8	109,3	5,0
Boshqa xizmatlar	215,2	107,9	3,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



# Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyul)

**2021- yil yanvar-iyun** oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **512,9** mlrd. soʻmga oshib, **1 406,6** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,9** foizni tashkil etdi. **2022-yilning** joriy davriga nisbatan moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **124,7 %** ni tashkil etdi.




**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyul)

**2023- yilning yanvar-iyul** oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,9 %** ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **Navoiy shahrining** ulushi **58,7** foizni yoki **825,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan **Karmana tumanida** yuqori oʻsish surʼati **131,8 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da

Hududlar	O'sish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>124,7</b>
Navoiy sh.	122,8
Zarafshon sh.	127,2
G'ozg'on sh.	112,3
Karmana t.	131,8
Konimex t.	115,6
Qiziltepa t.	129,9
Navbahor t.	121,0
Nurota t.	118,8
Tomdi t.	116,4
Uchquduq t.	118,3
Xatirchi t.	126,1

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(mlrd. so'mda)



## Transport xizmatlari (yanvar-iyul)


**2023- yilning yanvar-iyul oylarida** transport xizmatlari hajmi **952,3** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **99,0 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **15,5 %** ni tashkil etdi.



**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.




**2023- yilning 1- avgust** holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **773** birlikni, yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar umumiy sonining **5,1 %** ini tashkil etdi. Ulardan **764** birlik (**98,8 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

### Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023- yil yanvar-iyul)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,5 %**.

## Hududlar kesimida transport xizmatlari

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʻati, <i>% da</i>
Navoiy viloyati	952,3	99,0
Navoiy sh.	200,5	102,6
Zarafshon sh.	106,6	100,7
Gʻozgʻon sh.	2,9	102,5
Karmana t.	158,7	87,3
Konimex t.	37,9	104,0
Qiziltepa t.	152,1	101,6
Navbahor t.	75,1	101,3
Nurota t.	58,3	101,9
Tomdi t.	20,3	102,1
Uchquduq t.	40,2	101,7
Xatirchi t.	99,7	101,0

Navoiy viloyati geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.


**2021- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **51,7** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **200,5** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **102,6** % ni tashkil etgan.

Gʻozgʻon tumanida ushbu koʻrsatkich **2,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **102,5** % ni tashkil etdi.

# Savdo xizmatlari (yanvar-iyul)

**2021- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyul** oylarida savdo xizmatlari hajmi **597,5** mlrd. so'mga oshib, **1 865,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **104,8 %** ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**8 205 birlik**

1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan

**8 187 birlik**

1- avgust holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari

**2023- yilning 1- avgust** holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **54,4 %** yoki **8 205** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi (8 187 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





**81,3 %** Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar**



**8,9 %**

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar**



**9,8 %**

**2023- yilning yanvar-iyul** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **81,3 %** ni tashkil etdi.


Savdo xizmatlarining salmoqli qismi Navoiy shahrida – **27,0** foizni tashkil etdi. G'ozg'on shahrida bu ko'rsatkich **0,1** foizga yetdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi

Hududlar	Hududlar kesimida savdo xizmatlari mlrd.so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 865,1</b>	<b>104,8</b>
Navoiy sh.	502,7	104,2
Zarafshon sh.	192,8	105,8
G'ozg'on sh.	1,5	107,3
Karmana t.	328,0	104,9
Konimex t.	51,7	109,1
Qiziltepa t.	222,9	107,8
Navbahor t.	137,3	101,9
Nurota t.	113,3	104,7
Tomdi t.	27,0	103,2
Uchquduq t.	86,5	105,4
Xatirchi t.	201,4	103,2

# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(yanvar-iyul)



2023- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **247,4** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **123,9 %** ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **4,0** foizni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **265** birlikka yetdi, shundan **257** birligi (umumiy sonining **97,0 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y.

(yanvar-iyul)

2023- y.



# Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	247,4	123,9
Navoiy sh.	65,1	130,0
Zarafshon sh.	18,0	125,2
Gʻozgʻon sh.	2,0	115,8
Karmana t.	31,3	127,0
Konimex t.	8,3	117,2
Qiziltepa t.	32,8	120,4
Navbahor t.	24,3	120,1
Nurota t.	17,3	120,4
Tomdi t.	3,7	120,3
Uchquduq t.	8,7	115,2
Xatirchi t.	35,9	122,3


**2021- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan Navoiy shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **26,9** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **65,1** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **26,3** % ni tashkil etdi.

Gʻozgʻon shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **2,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



**2023- yil yanvar-iyul** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **206,7** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,4 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **69,5 %**ni tashkil etdi.




“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)




**2023- yil yanvar-iyul** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **84,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4 %** ini tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- avgust** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **348** birlikni tashkil etdi, shundan **281** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyul, mlrd. so'mda)



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyul)

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **246,5** mlrd. so'mga oshib, **405,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- avgust** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 271** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 267** birligi (umumiy sonining **99,7 %**) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-iyul)




# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-iyul)



**2023- yil yanvar-iyul** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **99,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,6 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil etgan.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



## Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)

**2023- yilning yanvar-iyul** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **304,8** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **5,0** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Zarafshon shahrining ulushi **74,4** % ni tashkil etdi.




### Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyul, mlrd. so'mda)

Navoiy viloyati	304,8	Navbahor t.	1,4
Navoiy sh.	65,4	Nurota t.	0,3
Zarafshon sh.	226,8	Tomdi t.	0,5
Karmana t.	3,6	Uchquduq t.	1,3
Konimex t.	2,3	Xatirchi t.	2,4
Qiziltepa t.	0,8		

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyul)



**2023- yilning yanvar-iyul** oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **96,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etilib, **2022- yilning mos davriga nisbatan** o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil etgan.




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyul)



**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

## Ijara xizmatlari (yanvar-iyul)

**2021- yilning yanvar-iyuliga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **12,7** mlrd. so'mga oshib, **77,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,3 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyul** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **78,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

